

**BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA
BOSHLANG'ICH TA'LIMNING O'RNI**

Ergasheva Durdona Safarali qizi

Farg'onan davlat universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6877930>

Annotatsiya. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni bolaligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalash dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada o'qituvchi shaxsining qanday ilg'or texnologiyalardan foydalanishi, didaktik o'yinlar ahamiyati, o'quvchilarni kitobga oshno qilishi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, komil inson, muomala, mavzular, internet, didaktik o'yinlar, o'zlashtirish.

РОЛЬ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОСПИТАНИИ ЗРЕЛОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В настоящее время одним из актуальных вопросов является духовное воспитание подрастающего поколения с детства. В данной статье подробно рассказывается, как учитель использует передовые технологии, значение дидактических игр, знакомство учащихся с книгами.

Ключевые слова: общение, совершенный человек, поведение, темы, Интернет, дидактические игры, обучение.

THE ROLE OF PRIMARY EDUCATION IN THE UPBRINGING OF THE MATURE GENERATION

Abstract. Currently, one of the topical issues is the spiritual education of the younger generation from childhood. This article details how the teacher uses advanced technology, the importance of didactic games, and introducing students to books.

Keywords: communication, perfect person, behavior, topics, Internet, didactic games, learning.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, bilimini oshirish, tarbiyalashda boshlang'ich ta'larning ahamiyati katta. Bugungi kunda boshlang'ich ta'larning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiliy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishslash, asosiy matematik amallarni bilishi va ularni kundalik hayotda qo'llay olishi, mantiqiy va ijodiy fikrashi, o'z-o'zini boshqarishi, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, chet tillarini o'rganishni boshlash, ta'limiylar faoliyatini tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, mustahkam poydevor rolini o'taydi. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiylar ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, muomala odobini shakllantirish hisoblanadi. Bizning oldimizda turgan eng katta muammolarimizdan biri ham shu. O'quvchi yuqori sinfga chiqqanda birinchi galdeg'i muammo, o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklar ekanligi aytildi. Bu o'quvchining kitobni kam o'qishidan, o'qigan asar yuzasidan og'zaki hikoyalash malakasi rivojlanmaganidan dalolat beradi. Shu boisdan ota-onan

bilan hamkorlikda ishlagan holda ularni tez-tez darslarga, tadbirlarga taklif qilib turish ham maqsadga muvofiqdir. Ota-onal uyda farzandi uchun pedagog ekanini his qilishi, shuning uchun kitobni avval o‘zlari o‘qib namuna bo‘lishlarini tushunib yetishlari zarur. Bundan tashqari, ota-onal o‘zlari televizor qarshisida o‘tirib olib farzandiga kitob o‘qishini ta’kidlashi noo‘rin ekanini anglaydilar. Shularni nazarda tutgan holda «Sinfdan tashqari o‘qish», tarbiyaviy soat va to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni badiiy adapbiyotga qiziqtirish uchun ota-onalarni taklif qilgan holda noan’ananaviy darslar tashkil etilmoqda. Bunda dars yana ham qiziqarli bo‘lishi uchun vaqtadan unumli foydalanish maqsadida o‘quvchilarga topshiriqlar oldindan beriladi. Jumladan, «Kitob haqida qiziqarli ma’lumotlar», «Bolalar shoiri va yozuvchilaridan kimlarni bilasiz?», «O‘qigan kitobingiz haqida ma’lumot bering. Uning muallifi va nomini bilasizmi?» kabi mavzular ilgari suriladi. O‘quvchi rag‘bat olish maqsadida biror bir kitob sotib olishga, kutubxonaga a’zo bo‘lishga yoki aka-opalari o‘qib bo‘lib, unga tavsiya qilgan kitobni qo‘lga olishga harakat qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘qituvchi bolalarga uyga topshiriq qilib bunday vazifalarni berishi o‘quvchilarga Internet tarmog‘idan to‘g’ri foydalanishni, unumli ishlatishni, vazifalarga ma’suliyat bilan yondashishga o‘rgatadi. O‘quvchi olib kelgan ma’lumotlar tinglanadi va o‘rganiladi. Kitob, kitob mutolaa qilish haqidagi topshiriqlar bajarilib bo‘lingach, kitob va planshet, ya’ni zamonaviy texnikada aks etgan ma’lumotlar taqqoslanadi. Bu o‘quvchilar o‘rtasida bahs-munozaraga sabab bo‘ladi. Ba’zi o‘quvchilar kitob o‘qish o‘rniga planshetdan foydalansa ham bo‘ladi, degan xulosaga keladi. Planshetdan foydalanish, uning qulayliklari: axborot-ma’lumotlarni yig‘ish, o‘yin o‘ynay olishi, musiqa tinglashi haqida aytadi. Ba’zi noqulayliklari ham sanab o‘tiladi. Masalan, uyda birdan chiroq bo‘lmasa undan foydalana olmaslik, yoki undagi manbaning, ya’ni asarning biror-bir sabab bo‘lib o‘chib ketishi, dars jarayonida foydalanayotgan vaqtida qo‘lidan tushib ketishi, unga suv to‘kilib ketishi... kabi kamchiliklari sanab o‘tilsa, kitobga bo‘lgan hurmat yana ham ortadi.

Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlar vositasida darslarni olib borish bolalarning aqliy faoliyatiga tezkor kirishishi va adabtasiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o‘tilgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Boshlang‘ich ta’limda didaktik o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘lum sifatlarni shakillantirish uchun, o‘quvchilar, ota-onalar tomonidan qollaniladigan usuldir. O‘yin vositasida o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi. Turli xil narsa-buyumlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek ularda muomala madaniyati shakllanadi. Quyidagi didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi: “Sanayver”, “Ko‘rganni eslab qol”, “Biz kamayib qoldik”, “Kim ketdi (takrorlash)”, “Nima o‘zgardi?”, “Teatr”, “Nechta ekanligini top”, “Jadvalni qidirib top”, “Qo‘snilaringni top”, “Hisoblashni kim bilsa davom ettiraversin”, “Tuk-tuk”, “Uychaga kim tez kiradi”, “Kim chaqqon?”.

MUHOKAMA

O‘qituvchi va ota-onal hamkorligini his qilgan o‘quvchida faollik kuchayadi. Darsni kuzatgan ota-onal o‘z farzandining tengdoshlari o‘rtasida o‘zini tutish odobini, faolligini, bilimini xolis baholashga erishadi. Agar farzandi darsda faol bo‘lmasa, nima uchun faollik yetishmadni, unga yana qanaqa yordam kerakligi haqida mulohaza qiladi. Farzandi uyda kitob o‘qiydimi, u

bilan vaqtida shug‘ullanadimi, unga yetarlicha e’tibor berilyaptimi, shularni xulosa qiladi. O‘quvchi ham, ota-onam ham kitob haqida, bolalar shoir va yozuvchilari haqida, kitob o‘qiganda avval muallifiga e’tibor berish kerakligini biroz bo‘lsa-da tushunib yetadilar. Kitob tanlash ham mahorat talab qiladi. Nomi juda jozibali bo‘lsa ham, ma’nosiy sayoz, oldi-qochdi bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Bundan tashqari, mashg‘ulotlar vaqtida kichik sahna ko‘rinishlari, she’riyat daqiqalari uyushtirilib turiladi. Shu o‘rinda «Eng yaxshi suxandon», «She’riyat malikasi», «Eng yaxshi rol ijrochisi», «Sahna malikasi»...kabi rag‘batlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘quv yili oxirida o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun kutubxonalarga, kitob bayramlariga sayohatlar uyushtiriladi. Ta’til vaqtida o‘quvchilarni band qilish maqsadida har xil tanlovlardan o‘tkaziladi.

REFERENCES

1. S.Qurbanov, Didaktik o‘yinlar. Urganch.2011. 10-11-betlar
2. Ergasheva,D.(2022). Development of Pedagogical Values in Children. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE. 449
3. <https://uzsmart.uz/library/view/66327.html>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/didaktik-o-yinlar>
5. <https://fayllar.org/reja-badiiy-asar-ustida-ishlash-bosqichlari.html>